

**MASHHUR SHAXSLAR NOMIDAN YASALGAN TOPONIMLAR (KASBI TUMANI
TOPONIMLARI MISOLIDA)**

Quyanov Samandar Sayliyevich
QarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda Kasbi tumanidagi eponim asosida yuzaga kelgan joy nomlarini o'rganish, tahlil hamda talqin qilish va ularning tilshunoslikdagi o'rnini aniqlash.*

Kalit so'zlar: *toponimlar, drionimlar, dromonimlar va eponimlar, apellyativ, leksik tahlil, etimologiya, tarixiy manbalar, madaniy meros, tilshunoslik.*

Eponim atamasi “O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati”da: (gr. Eponumos – nimanidir beruvchi + onoma – atoqli ot) – mashhur shaxs nomidan yasalgan atoqli ot¹⁵² deya izoh keltirilgan. Shunga ko‘ra manbalarda eponimlar mavzu doirasi kengligi jihatidan turli soha mutaxassislarini qiziqtirishi ta’kidlanib, Napoleon, Olivye (oziq-ovqat), Makintosh, Kardigan (kiyim-kechak), Kalashnikov (qurol nomi) kabi ko‘plab eponimlar jonli tilda keng qo‘llanilishi misol qilinadi. “Eponimlarning tilda paydo bo‘lishi ikki xil asosga tayanadi: 1) atoqli otlardan turdosh ot hosil qilish, va aksincha, turdosh otning atoqli otga aylanishi: Rentgen (antroponim) – rentgen nuri (xossaning nomi, turdosh ot); 2) bir atoqli otdan boshqa turdagi atoqli otning paydo bo‘lishi: Amir Temur (antroponim) – Amir Temur shohko‘chasi (godonim) kabi fikrlar eponim atamasining yanada chuqurroq anglashimizga sabab bo‘ladi. “Shaxs nomi bilan bog‘liq eponimlar ilm-fanning turli sohalarida uchraydi. Ular ikki xil usul bilan hosil bo‘ladi. Birinchisida, antroponim to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqa onimga o‘tadi. Masalan, Yaroslav Mudriy (knyaz) – Yaroslavl (shahar), Alisher Navoiy (shoir) – Navoiy (viloyat), Kolumb (sayohatchi) – Kolumbiya (mamlakat), Zangi ota (shayx) – Zangiota (tuman) kabi”¹⁵³.

Biz ham o‘z maqolamizda yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar va ilmiy manbalarga tayangan holda Kasbi tumanidagi eponim asosida yuzaga kelgan joy nomlarini tahlil qilishga harakat qildik. Tumandagi toponimlar sistatistikasiga e’tibor qaratilsa, toponimlarning ko‘p qismi antroponimlar asosida yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. 1. Ko‘cha nomi: *Mahmud Koshg‘ariy, Avaz O‘tar, Fayzulla Xo‘jayev, Sa‘diy Sheroziy, Nosir Xisrav, Shukur Burhonov, Muhammad Tarag‘ay, Atoiy, Foni, Abdulla Qodiriy, Zulfiya, Erkin Vohidov, Mirmuhsin, Abdulla Avloniy, Muhammad Yusuf, Musa Jalil, Cho‘lpon, Sayido Nasafiy, Mashrab, Razzoq Hamroyev, Usmon Nosir*; 2. Ziyoratgoh nomi: *Hazrati Sulton Mir Haydar, Ibrohimota, Imom Muhammad Sadr Islom, Nazarbobo*, 3. Qabriston nomi: *Hazrati Sulton Mir Haydar, Xo‘ja Rushnoiy, Ahmadota*.

Sh.Shirinqulova o‘z tadqiqotida eponimlar nafaqat tilshunoslik, balki barcha fan sohalarida uchratish mumkin ekanligini qayd etib, bugungi kunda turdosh otga

¹⁵² Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – B. 93.

¹⁵³ Abdullayev A. Tibbiyot terminologiyasida eponimlarning o‘rni. <http://universalpublishings.com>.

aylanganlarini misol qiladi: “Eponimiya hodisasini fanning turli sohalarida kuzatish mumkin va ularsiz jamiyatning deyarli hech bir jihatini tasavvur qilib bo’lmaydi. Masalan: geografiya (*vulqon, okean*), fizika (*volt, gers*), kimyo (*samariy, mendelevey*), adabiyot (*buxoriylar*), tasviriy san’at (*vatman, flomaster*), ovqatlanish joylari (*shirin, napoleon*) va boshqalar. Eponim atamalarining o’ziga xosligi zamondoshlarimiz nomlari hamda o’tmishda yashab o’tgan olimlar, siyosiy va jamoat arboblari, ixtiro egalarining nomlari bilan bog’liqligidir. Binobarin, mashhur shaxs nomlari o’z davrining “yodgorliklari”ga aylanadi va bu ma’lum millatning qadriyatiga aylanadi. Masalan, falsafada aristotelchalik, pifagorchalik; tasavvufda so’fiylik, naqshbandiylik; davrlashtirish bilan bog’liq usmoniyalar, somoniyalar, temuriylar va boshqa ko’plab atamalar tarixni, ilmiy maktablarning taraqqiyoti va shakllanishini aks ettiradi”.¹⁵⁴

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, jamiyatning barcha sohalarida, ya’ni fan yo’nalishlarida eponim atama sifatida o’z izi qoldirmasdan o’tmaganligiga guvoh bo’lish mumkin. Shunday ekan eponimlarni o’rganish sohaga yangi qarash va tuzilmalarni hosil qilishiga sabab bo’lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Begmatov E., Uluqov N. O’zbek onomastikasi terminlarining izohli lug’ati. – Namangan, 2006. – B. 93.
2. Abdullayev A. Tibbiyot terminologiyasida eponimlarning o’rni. <http://universalpublishings.com>
3. Shirinqulova Sh. Eponimlarning tibbiy ta’limdagi roli va uning ilmiy tahlili // Qo’qon DPI. Ilmiy xabarlar. – Qoqon, 2025. - №4. – B. 2980 (ISSN:3030-3958)
4. <http://geonames.kadastr.uz>.

¹⁵⁴ Shirinqulova Sh. Eponimlarning tibbiy ta’limdagi roli va uning ilmiy tahlili // Qo’qon DPI. Ilmiy xabarlar. – Qoqon, 2025. - №4. – B. 2980 (ISSN:3030-3958)